

МАКТАБГАЧА YOSH DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATI

ОСОБЕННОСТИ ПСИХИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ

FEATURES OF MENTAL DEVELOPMENT IN PRESCHOOL AGE

Ibragimova Xurshida Xusanbayevna

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Pedagogik psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Qaxramonova Muslimaoy Abdumalijon qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi 102-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14279845>

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgachayosh davrida psixik rivojlanish xususiyatlari to'g'risida fikr yuritilgan.

Аннотация: В данной статье рассатриваются особенности психического развития в дошкольном возрасте.

Abstract: This article discusses the characteristics of mental development in preschool age.

Kalit so'zlar: yoshlik, psixik rivojlanish, maktabgacha, bola psixikasi, shaxsiyat, ijtimoiy qobiliyat, hissiyotlar, aqliy, e'tibor, o'yin faoliyati, ijtimoiylashish.

Ключевые слова: психическое развитие, дошкольная психология, личность, социальные навыки, эмоции, психическое внимание, игровая деятельность общение.

Key words: mental development, preschool psychology, personality, social skills, emotions, mental attention, game activity, socializing.

Maktabgacha yosh (3–7 yosh) bolalarining psixik rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu davrda bolaning shaxsiyati, aqliy, hissiy va ijtimoiy qobiliyatlari shakllana boshlaydi. Ushbu davr psixologik rivojlanishning eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi, chunki bolalar bu davrda asosiy psixik jarayonlarni o'zlashtiradilar. Quyida maktabgacha yoshdagi psixik rivojlanishning asosiy xususiyatlari keltirilgan:

Hissiyotlar va emotsiyalar-bolaning hissiy hayoti chuqurlashadi, emotsiyalar barqaror bo'la boshlaydi. Ijobiy hissiyotlar muhim o'rin tutadi, ayniqsa o'yin va muloqot jarayonlarida

Empatiya shakllanishi boshlanadi – bola boshqalarning his-tuyg'ularini anglay oladi.

Aqliy rivojlanish-bu davrda tafakkur obrazli va intuitiv bo'ladi. Bolalar asosan ko'rgazmalilikka asoslangan holda fikr yuritadilar. Til rivojlanishi jadal sur'atda o'sadi: so'z boyligi ortadi, so'z birikmalari va murakkab gaplar shakllanadi. E'tibor barqaror emas, lekin asta-sekin diqqatni uzoq vaqt davomida saqlash qobiliyati rivojlanadi. Xotira asosan ixtiyorsiz bo'ladi: bola qiziqarli va hissiy jihatdan boy ma'lumotlarni oson eslab qoladi. Bularga:

Obrazli taffakur: Bolaning fikrlashi ko'proq ko'rgazmalilikka asoslangan bo'lib, narsalar va hodisalarning tashqi belgilari, ularning hajmi shakli va rangiga qarab uning fikrlashishi va psixologiyasini bilib olish mumkin.

Xotira: Asosan ixtiyorsiz xotira faol bo'ladi. Bola o'ziga qiziqarli va hissiy jihatdan muhim bo'lgan narsalarni osonroq eslab qoladi.

Diqqat: E'tiborni uzoq vaqt davomida jamash hali qiyin, lekin bolani qiziqtirgan faoliyatda bu qobiliyat rivojlana boshlaydi. Diqqat o'zi onglarni to'plab muayyan obyektga qaratish fikri **Doplinga** tegishlidir.

Ijtimoiylashuv-bolaning muloqot ehtiyoji ortadi, tengdoshlar va kattalar bilan aloqalar kuchayadi. Ijtimoiy me'yorlar va qoidalarini o'zlashtira boshlaydi. Mustaqillik rivojlanadi, lekin ba'zan kattalardan yordam talab qiladi. Shaxsiy xususiyatlar shakllanishi-bola o'zini alohida shaxs sifatida anglay boshlaydi, "men" tushunchasi rivojlanadi. Fe'l-atvori, qiziqishlari va xulq-atvori shakllanadi. Bola o'z qobiliyatlariga ishonishni o'rganadi, o'z-o'zini baholash asoslari paydo bo'ladi.

Nutq va kommunikativ rivojlanish:

Nutq boyligi to'g'risida-Nutq boyligi lug'at bilan bog'liqdir sababi lug'at so'z boyligi bilan belgilanadi. Shaxs qanchalik ko'p kitob o'qisa uning so'z boyligi shuncha ortadi. Bolaning nutqi ravon bo'lishi uchun avvalo unga kerakli va foydali so'zlarni bolalik chog'idan o'rgatish kerak. Bolaga kitobga mehr qo'yishi uchun rangli va rasmi kitoblarni olib berish, o'qib berish va hayotga tatbiq etishni o'rgatish zarur.

Muloqot ko'nikmalari: Muloqot ko'nikmasini rivojlantirish uchun ko'proq suhbatlar qurishi kerak. Tengdoshlar, oila davrasida, qarindoshlar, do'stlari bilan ko'proq suhbat qurishi lozim. Inson qanchalik yaqinlar orasida gaplashsa o'z fikrini ifodalab bersa jamiyatda ham o'z o'rniga ega shaxs bo'lib yetishadi. Biroq qanday vaziyatlarda qaysi so'zlardan foydala olishi uning tarbiyaviy va ahloqiy holatlariga bog'liq bo'ladi. Sababi inson kerakli so'zlarni so'zlamog'i darkor

Ijodiy ifoda: Muloqotlarga kreativlik qo'shish. Suhbatdoshida ijobiy fikr qoldirish uchun unga samimiy va ochiqlik bilan muloqot qilish zarur yo'qsa suhbatdoshida salbiy emotsiya qoldirish mumkin. Suhbatni qiziqarli bo'lishi uchun uni kuldirish tabbasum bilan muomala qilishi yoki esda qolarli hikoyani aytib berish singari vaziyatlar shunga misol bo'la oladi.

O'yin faoliyati:

Rolli o'yinlar: Rolli o'yinlar orqali bola kattalar dunyosidagi turli rollarni ijro etish orqali unda harakter va taqlid qilish va o'ziga ideal bo'gan insonga o'zini o'xshatish kabi holatlar yuz beradi va shu rollar orqali hayotda o'z o'rnini egallaydi.

Ijodiy faoliyat: Bu rolda o'ynaga o'rini uning ta'siri natijasida kelib chiqadi ya'ni bolaning fantaziyasiga qarab bu rol yaratiladi. Bola qanchalik tasavvurga boy bo'lsa rol shunchalik qizg'in ketadi.

Qoidali o'yinlar: Qoidalarini tushunish va ularga rioya qilish orqali irodaviy sifatlar shakllanadi.

Ijtimoiylashuv va shaxsiylik

O'z-o'zini anglash-Bola qanchonki o'zini anglaganda unda o'zinikini bildirish hissi namoyon bo'ladi. Ya'ni o'ziniki bo'lgan narsalarni himoya qiladi, qizg'onadi va ehtiyot qiladi. Bu "MEN" so'zi orqali boshlanadi.

Munosabatlar: Munosabatlar qurishda soflik va masofa asosida qurilishi darkor. Ya'ni o'zinidan soxta inson yasamagan holatda suhbatdoshi bilan shaxsiyatga tegmagan holada chegara saqlash orqali. Bu iiki hislat har qanday insonlar bilan kelishishga yordam beradi. Chunki shaxsiyatdan yuzasidan savollar berilmaydi toki o'zi hohlamaguncha, yolg'on va alash gaplari bo'lmaydi bu esa suhbatdoshni sizga bo'lgan fikrini yaxshi tomonga o'zgartirishga xizmat qiladi.

Axloqiy tushunchalar: Bu axloqiy tushunchalar albatta tarbiyaga bog'liq bo'ladi. Qanday muhitda katta bo'lsa shu muhitdan kelib chiqqan holatda vaziyatga baho beradi va fikr bildiradi. Buning uchun bolaga go'zal tarbiya bermog'i lozim va balog'at yozishiga yetgach yoki oq qorani farqlay olgach unga mobil telefondan foydalanishga ruxsat berilishi kerak deb hisoblayman. Sababi shuki ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalana olmasligi sababli vaqtini zoye ketgazishi mumkin va kirishi taqiqlangan saytlarga kirishi hayotini xavfga qo'yishi mumkin. Shuning uchun ota-onalar farzandlariga e'tiborli bo'lishi shart va majbur.

References:

1. Xaydarov.F.I, Xalilova. N.I "Umumiy psixologiya" Toshkent-2010y
2. Karimova V.M. Psixologiya T-2002y.
3. G'oziyev E.G' Umumiy Psixologiya 1-2 kitob T-2002y
4. Davletshin M.G Umumiy Psixologiya T-2002y
5. Ivanov.P, Zufarova.M "Umumiy Psixologiya" T-2008y.